
SOLIJONOBODDA YANA BIR TADBIRKOR O'Z FAOLIYATINI BOSHLADI



Qo'shtepa tumanidagi Solijonobod mahallasida yashovchi G'ulomjon Tojinazarov bir necha yillardan buyon mavsumiy ishlar bilan shug'ullanib kelayotgan edi. U mahalla hokim yordamchisi Sherzodbek Raxmonovga murojaat qilib, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagini bildirdi.

Hokim yordamchisi bu tashabbusni maqullab, G'ulomjonga "Har bir oila - tadbirkor" dasturi asosida imtiyozli kredit ajratilib, ozuqabop mahsulotlar ishlab chiqaruvchi mini tegirmon olib berishga ko'maklashdi. Hozirda nafaqat G'ulomjonni, balki uning oila a'zolarining bandligi ham ta'minlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-12-01 09:45:14